

O'ZBEK VA KOREYS TILLARIDA TURIZM TERMINLARINING
QO'LLANILISHI

Akbarov Alisher Ahmadjon o'gli

O'zbekiston-Koreya xalqaro universiteti tarjimoni

Annotatsiya : Ushbu maqolada turizmga oid bo'lgan bir qator terminlarning o'zbek va koreys tillarida leksik-semantik xususiyatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Turizm, termin, turizm ta'limi, ijtimoiy turizm, ommaviy turizm.

Turizm bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotining muhim jabhalaridan biri bo'lib kelmoqda. Bilamizki, davlatimizning, xususan, Farg'ona viloyatining Janubiy Koreya davlati bilan turli xil sohalardagi munosabatlari yildan-yilga rivojlanib bormoqda. Shu jumladan, turizm sohasida ham. Farg'onada turizm fakulteti mavjud bo'lgan Koreya xalqaro universiteti ham ochilgan bo'lib, respublikamizdan Janubiy Koreyaga borib, turizm sohasida o'qiyotgan talabalar soni ham oz emas. Shu tufayli turizm terminlarini bevosita o'zbek va koreys tillari orqali o'rganishga talab ortib bormoqda. Lekin ayni vaqtda yetarli adabiyotlar va sohaga doir qilingan ilmiy tadqiqotlar yetarlicha emas. Ushbu maqola orqali turizm terminlarini o'zbek va koreys tillarida mazmun va mohiyati, qo'llanilishini chog'ishtirib, shu soha vakillari va talabalar uchun o'rganishni osonlashtirish rejalashtirilgan.

Dastavval, turizm so'zining o'zbekcha va koreyscha lug'aviy ma'nosiga to'xtalib o'tamiz.

Koreys tilidagi “turizm” ‘관광’ (kvangvang) so'zining etimologiyasi quyidagicha:

“Turizm” ‘관광’ (kvangvang) so'zining etimologiyasi Xitoyning Chjou sulolasi davridagi “Yokkyong” asaridagi “Kwanguk Chigvang I Yong Bin Vu ” (觀國之光利用賓于王) iborasidan olingani ma'lum. Bu bir davlatdan kelgan elchining boshqa davlatga tashrif buyurib, qirol huzuriga tashrif buyurib, o'z mamlakatining ajoyib madaniyatini tanishtirishi bilan birga o'sha mamlakatning ajoyib madaniy yodgorliklarini tomosha qilishi qirolning sharafli mehmoni sifatida qabul qilinishiga munosiblik belgisini ifodalaydigan bir ramziy tushunchadir. Bu yerdagi 관(觀) (kvan) “ko'rmoq”, “ko'rinmoq” ma'nosini bildirib, 광(光) (gvang) “ajoyib narsa”, “chiroyli narsa”, “faxrlanish” ma'nolarini bildiradi. [1]

O'zbek tilida turizm [fr. *Tourisme – tour aylanish, sayr-sayohat qilish*].

Ham dunyoni ko'rish, bilish, o'rganish, ham dam olish maqsadida tashkil etiladigan sayr-sayohat. Xalqaro turizm. Misol: Saxiy quyosh, tinchlik va saxovat o'lkasi bo'lgan respublikamizga jahonning turli mamlakatlaridan ko'plab turizm va sayohat ishqibozlari kelmoqdalar. Gazetadan. Turizmning tobora rivojlanayotganini e'tiborga olib, turistik poezdlar marshruti yanada ko'paytiriladi. ‘Fan va turmush’ [2]



Koreys tilidagi turizm[1] (관광) (kvangvang) so'zining kelib chiqishi tarixiga to'xtalib o'tamiz:

Bu yerdagi 관(觀) (kvan) “ko'rmoq”, “ko'rinmoq” ma'nosini bildirib, 광(光) (gvang) “ajoyib narsa”, “chiroyli narsa”, “faxrlanish” ma'nolarini bildiradi.

Turizmning tarixiy tendentsiyalarini haqida ham o'rganib chiqishimiz maqsadga muvofiqdir. Turizm fenomeni insoniyatning paydo bo'lishi bilan bir vaqtga to'g'ri kelgan deyish mumkin, turizmning tarixiy o'zgarish jarayoni sayohatlar davri, turizm davri va ommaviy turizm davri sifatida keng ko'rib chiqilishi mumkin. Sayohat davri tabiiy ravishda yuzaga keladigan bosqich bo'lib, u tosh davri, antik davr, o'rta asrlar va 19-asrning birinchi yarmigacha o'z ichiga olib, asosan dvoryanlar, rohiblar, ritsarlar kabi imtiyozli tabaqalar diniy ta'lim olish maqsadida qilishgan.

Turizm davri 1840-yillarning boshidan to 2-jahon urushigacha bo'lgan davrda, sayohat sanoatining paydo bo'lishi bilan boshlanadi. Asosan imtiyozli tabaqalar va boy tabaqalar tomonidan bilimlarni kengaytirish maqsadida qilingan. Ommaviy turizm davri ikkinchi jahon urushidan keyin to hozirgi kungacha bo'lgan davr bo'lib, davlat, jamoat tashkilotlari, korxonalar xalq farovonligi yo'lida turizmni rivojlantirayotgan davrdir.

Bu davrda sayohat sinfi ham an'anaviy imtiyozli ozchilikdan keng jamoatchilikka kengaydi va turizmga undovchi omil ham dam olish va o'yin-kulgiga yo'naltirilgan bo'ldi.

Quyida turizmga oid koreyscha atamalar lug'ati ham ko'rib chiqamiz.

1. Turizm 관광 [kvangvang] [3]

Inson yana qaytib kelish niyatida kundalik turarjoyini tark etib boshqa davlat yoki boshqa hududning diqqatga sazovor joylarini, tizimini, urf-odatlar, madaniy yodgorliklar va hokazolarni kuzatish orqali bilimlarni kengaytirib, tabiat manzaralari kabilarni tomosha qilish va zavqlanish maqsadida sayohat qilish.

2. Turizm xohishi 관광욕구 [kvangvang yokku]

Turistik harakatni shakllantirish uchun zarur bo'lgan psixologik harakatlantiruvchi kuch.

3. Turizm uchun motivatsiya 관광동기 [Kvangvang donggi]

Turizm istagini harakatga aylantiruvchi psixologik energiya

4. Turizm target(maqsad)i 관광대상 [Kvangvang desang]

Turistlarning turli xohishlarini uyg'otuvchi yoki qondiruvchi obyekt sifatida turistik obyekt deb ham ataladi. Turistik target turistik harakatni keltirib chiqaradigan turistik resurslar va turistik faoliyatni qo'llab-quvvatlovchi turistik imkoniyatlar(facility)larni o'z ichiga oladi.

5. Turizm vositalari 관광매체 [Kvangvang meche]

Turizm xohishi va turizm obyektlarini bog'lab beradigan vazifani bajaradigan transport vositalari, turar joy/dam olish maskanlari, sayyohlik agentliklari va gidlar va boshqalarni o'z ichiga oladi.

6. Bo'sh vaqt 레저 (Leisure)



Vaqt nuqtai nazaridan bo'sh vaqt (Leisure) deganda ijtimoiy hayot vaqti (ish, o'qish va hokazo) va hayotdagi muhim vaqt (uyqu, ovqatlanish) ni o'z ichiga olmagan bo'sh faoliyat vaqti tushuniladi.

Faoliyat nuqtai nazaridan, bu bo'sh vaqtdagi faoliyat uchun umumiy atama bo'lib, dam olish va turizmni o'z ichiga olgan tushunchadir.

Shunday qilib, xulosa o'rnida aytish mumkinki, o'zbek va koreys tillarida, turizm so'zining kelib chiqishi har xil bo'lishiga qaramasdan, har ikki tilda ham deyarli bir xil tushunchani, ya'ni, dunyoni, yangi joylarni ko'rishni, o'rganishni ifodalaydi. Faqatgina koreys tilida aynan turizmni ifodalovchi, qadimdan qo'llanilib kelgan '관광 (kvangvang)' so'zi ham, ingliz tili orqali kirib kelgan 'tourism' so'zi ham keng qo'llanilsa, o'zbek tilida esa faqatgina rus tili orqali o'zlashgan 'turizm' so'zi keng qo'llaniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Koreya madaniyati milliy ensiklopediyasi 한국민족문화대백과사전 (Encyclopedia of Korean Culture)

2 O'zbek tilining izohli lug'ati. 5-jildli. Toshkent

3. Chet ellik talabalar uchun asosiy atamalar kitobi, 86-beti. Dong-A universiteti (외국인 유학생 기초학문용어집 86-87-페이지. 동아 대학교) 홈페이지 (vebsayt): <http://www.donga.ac.kr>

